

O‘QISH VA YOZISHDAGI KAMCHILIKLARI BO‘LGAN BOLALARNI TEKSHIRISH

Baxritdinova Gulandom Erkin qizi

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Pedagogika Univeriteti Pedagogika Psixologiya fakulteti
o‘qituvchi*

Husanova Zebiniso Turdi qizi

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Pedagogika Univeriteti Pedagogika Psixologiya (logopediya)
yo‘nalishi 3 – kurs - 514.22 guruh talabasi*

zebinisohusanova1@gmail.com

970292904

Anatatsiya: Bugungi maqolamizda o‘qish va yozishdagi buzilishlar bir biriga o‘xshashligi. Yozuvi buzilgan bolalarda ko‘pgina oliy psixik funksiyalar: qobiliyatning tahlili va sintezi, fazoviy tasavvurlar, nutq tovushlarini ko‘rish eshitish orqali farqlash, fonematik hamda bo‘g‘inli analiz-sintez qilish, gapni so‘zlarga ajratish, nutqning leksik va gramatik tuzilishi, xotira, diqqat-e‘tibor, sukcesiv va simultan jarayonlarining emotsionalirodaviy sohaning shakllanganligi kuzatilishi hamda ularni tekshirish haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yozuvi buzilgan bolalar, ko‘pgina oliy psixik funksiyalar, qobiliyatning tahlili va sintezi, fazoviy tasavvurlar, motor disgrafiya, o‘qish va yozuv buzilishlarini oldini olish.

Kirish

O‘qish va yozishdagi buzilishlar bir biriga o‘xshash bo‘ladi. Yozuvi buzilgan bolalarda ko‘pgina oliy psixik funksiyalar: qobiliyatning tahlili va sintezi, fazoviy tasavvurlar, nutq tovushlarini ko‘rish eshitish orqali farqlash, fonematik hamda bo‘g‘inli analiz-sintez qilish, gapni so‘zlarga ajratish, nutqning leksik va gramatik tuzilishi, xotira, diqqat-e‘tibor, sukcesiv va simultan jarayonlarining emotsionalirodaviy sohaning shakllanganligi kuzatiladi.

Motor disgrafiya – qo‘lning yozuv paytida qiyin xarakterga kelishi, motor obrazlaridagi aloqalarning so‘zlariga tovush va ko‘rish obrazlari bilan birgalikdagi buzilishi unga xosdir.

Disgrafiyaning bartaraf etishda yozuv mashqlari katta o‘rin tutadi. Artikulator – akuvtik disgrafiyaning bartaraf etishda avval tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni to‘g‘rilash lozimdir. Ishning boshlang‘ich davrida tovushlarni aytib takrorlamaslik tavsiya etiladi, chunki bu holatda yozuvda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishiga olib kelishi mumkin. Disgrafiya va fonematik disleksiyani bartaraf etishda tilning analiz va sintez tomonini rivojlantirish. Gapda so‘zning soni, ketma-ketligi va o‘rnini aniqlash qobiliyatini quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali shakllantirish.^[1]

1. Sujetli rasmlar asosida gap tuzib va gapdagi so‘zlar sonini aniqlash;
2. Ma‘lum miqdorda so‘zlar bo‘yicha gap o‘ylab topish;

3. Soʻzlar sonini koʻpaytirib, gapni kengaytirish;
4. Gapda soʻzlar oʻrnini aniqlash;
5. Maʼlum sondagi soʻz ishtirok etgan gaplarni matndar ajratish;
6. Gapda nechta soʻz boʻlsa, shuni koʻrsatuvchi sonni koʻrsatish.[1]

Oʻqish va yozuv buzilishlarini oldini olish maktabgacha yoshda oʻtkaziladi. Bu ishlarayniqsa nutqida kamchiligi boʻlgan bolalar, ruhiy rivojlanishida toʻxtalish boʻlgan, aqli zaif vaboshqa anomal bolalar bilan oʻtkazilishi taqqazo qiladi. Bunda olib boriladigan asosiy ishlarfazoviy koʻrish funksiyasini, diqqat, xotira, analitik, sintetik faoliyat, til analiz-sintezinshakllantirish, nutqning leksik gr Ogʻzaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlashusuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi. Insho material manbaiga koʻra uchga boʻlinadi:

- 1) oʻquvchining oʻzi koʻrgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, kuzatishlar, ekskursiyalar, oʻyinlar, oʻz tajribasi va boshqa jonli m ateriallar asosidagi insho;
- 2) kitob materiali, rasmlar, film, spektakl, oʻqituvchi hikoyasi va boshqa manbalarasosidagi insho;
- 3) turli manbalar materialidan foydalaniladigan insho.amatik tomonini rivojlantirish va ogʻzaki nutq kamchiliklarini bartaraf etishdan iborat.

Ogʻzaki nutq pauza, urgʻu, intonatsiya va tovushlar orqali tinglovchiga borib yetsa, yozma nutq, harf va soʻzlarning maʼlum qonuniyat asosida oʻzaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar, gaplarni grammatik jihatdan aniq va tovushlarni bayon qilish orqali yetib boradi. Ogʻzaki nutqning yozma nutqdan yana bir farqi shuki, ogʻzaki nutqni eshitamiz, yozma nutqni koʻramiz va oʻqiymiz. Yozma nutq murakkab jarayon boʻlib, u koʻp vaqt mehnat talab qiladi. Sintaksis jihatdan qaraganda yozma nutq eng toʻliq va mukammal nutqdir. Bu nutq ixtiyoriy fikrimizni ifodalab berishning eng yaxshi vositasidir. Yozma nutq ogʻzaki nutq asosida rivojlanadi. Ogʻzaki nutq hayotda kishilar bilan munosabatda boʻlish, ularga taqlid qilish yoʻli bilan rivojlanib, boladan maxsus oʻqish va oʻrganishni talab etmaydi. Yozma nutq esa harflar va belgilar yordami bilan tovushlar, soʻzlar, gaplarni koʻz bilan idrok qilishga, qoʻl bilan yozishga moljallangan nutqdir. Bolalarning ogʻzaki nutqida kamchiliklar uchragani kabi, yozma nutqiarida ham bir qator kamchiliklar uchraydi. Bu holatlar olimlarimiz tomonidan oʻrganilgan boʻlib, olimlar ishining boshlangʻich davri XIX asrgacha boritaqaladi. Oʻqish buzilishlarning simptomatikasi va mexanizmlari haqidagi tasavurlar sekin-asta toʻplanib borgan. Birinchi marta bu buzilishlar nutq faoliyatining mustaqil potologiyasi ekanligi 1877-yilda A. Kussmaul koʻrsatib oʻtdi. Keyinchalik esa oʻqish va yozuvida turlicha buzilishlari bor bolalami taʼriflash ishlari yuzaga kela hoshladi. Bu vaqtda ish va yozuvdagi patologiyalar yozma nutqning buzilishi birligi sifatida koʻrilar edi. XIX asroxiri va XX asr boshlarida adabiyotlarda oʻqish buzilishlari umumiy aqli zaiflikning simptomi deb va bu buzilishlar faqat aqli zaifbolalarda kuzatiladi degan fikrlari (F. Baxman va B. Engler). XIX asrning oxiri, 1896-yilda V. Morgan yozish va oʻqishdagi kamchiliklarni aqliy jihatdan sogʻlom, boʻlgan 14 yoshli bolada kuzatgan. V. Morgan bu kamchilikni "orfografik jihatdan toʻgʻri yozish va xatosiz bogʻlanishli oʻqish qobiliyatining yoʻqligidan" kelib chiqadi deb aniqladi. V Morgandan soʻng koʻpgina muallifiar (A.Kussmaul, O.Berkan) oʻqish va yozuvdagi kamchiliklarni aqli zaifiikka bogʻlamay, nutq faoliyatida mustaqil kamchilik sifatida oʻrgandilar. Angliyalik akulist-shifokor Kerr va V. Morgan bolalardagi oʻqish va yozishdagi buzilishlarga bagʻishlangan maxsus ishlarini matbuotda eʼlon qildilar Bu esa oʻqish buzilishining nazariy jihatdan oʻiganishning boshlangʻich ishi boʻlib hisoblanadi. Oʻqish — murakkab psixoflziologik jarayon. Oʻqish jarayonida koʻrish, nutq-harakat, nutq-eshitish analizatorlari ishtirok etadi. Bu jarayon asosida "analizatorlarning murakkab oʻzaro harakat mexanizmlari va ikki signal sistemasining vaqtinchalik aloqasi" yotadi, deb yozadi B.G. Anonev. Oʻqishning buzilish muammosini tanqidiy tahlili, avvalambor normada oʻqish jarayonining murakkab psixofizik

tuzilishini tushunish va bolalarning o'qish malakalarni o'zlashtirish xususiyatlariga asoslanishi kerak. O'qish yozma nutqning bir turi bo'lib, og'zaki nutqqa qaraganda kech va (murakkab) qiyin o'zlashtiriladi. Yozma nutq og'zaki nutq asosida shakllanadi. Yozma nutqning murakkab shartli reflektor aloqasi shakllangan ikkinchisi signa! sistemasi (og'zaki nutq) bilan birlashadi va uni rivojlantiradi. Yozma nutq jarayonida eshitgan, ko'rilgan va talaffuz qilingan so'zlar o'rtasida yangi aloqalar tiklanadi. Agar og'zaki nutq asosan nutq harakat va nutq-eshitish analizatorlarining faoliyatida vujudga kelsa, yozma nutq esa "eshituv motor emas, balki ko'ruv-eshituv motor qurilmasi" bo'lib hisoblanadi. Yozma nutq og'zaki nutqning ko'ruv shaklidir. Yozma nutqda aniq grafik belgilar, og'zaki nutqdagi so'zlarning tovush tuzilishi, tovushlarni tasavvurda grafik tasviri, ya'ni harflarni bildiradi. Shunday qilib, o'qish o'zining psixofizik mexanizmi bilan og'zaki nutqqa qaraganda birmuncha murakkab jarayondir. Og'zaki va yozma nutq bir-biri bilan o'zaro aloqada rivojlanadi. O'qish ko'rish idroki orqali harflarni bilish va farqlashdan boshlanadi. Shu asosida harflarni ma'lum tovushlarga mos kelishi yuzaga keladi. Nihoyat so'zning tovush shakli va uning mazmun o'qilayotgan matnni, gapni tushunishni vujudga keltiradi. Shunday qilib, o'qish jarayonida ikkita shartli tomonini belgilash mumkin:

Texnik (ko'ruv obraz yozilgan so'zning talaffuziga mos kelishi).

Mazmuni, ya'ni bu o'qish jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi.^[2]

Tushunish so'zning tovush shakli va uning ma'nosi bilan bog'lanishi asosida ruyobga chiqadi. O'qish jarayonining mana shu tomonlari o'rtasida ajratib bolmas aloqa mavjud. O'qilayotgan gapni ma'nosini tushunish jarayoni idrokning holati bilan aniqlanadi. Katta kishilar o'qish jarayonida o'qilganlarning ma'nosini avtomatik tarzda anglaydilar. Lekin bu avtomatlashgan o'qish savodga o'rganish operatsiyasi jarayonida murakkab va ko'p qirralidir. Texnik tomonning murakkabligi kishining o'qish jarayonidagi ko'z harakatining tahlilida aniq namoyon bo'ladi. Yaxshi o'qiydigan kishining ko'z harakati bir nuqtadan boshqa nuqtaga tez sur'atda o'tadi. O'qish jarayonida harakat faqat oldinga (o'ngga) bo'lmay, balki orqaga harakat ham bo'ladi. Avvalgi idrokka qaytganda, orqaga harakat regressiya nomini oladi. O'qish jarayonidan o'qilgan so'zning idroki fikrsatsiya paytida qatorida ko'z harakatining to'xtashida sodir bo'ladi. O'qish jarayonida ko'z harakatining qatorida 12-20 marta uzoq muddatli to'xtaydi. Qatorida to'xtash soni turlicha bo'ladi, ular so'zlarning yoki qatordagi harflarning soni bilan bog'liq bo'lmaydi. Ko'zning fikrsatsiyasi so'zlar orasida va so'zning o'rtasida bo'lishi mumkin. To'xtash soni so'zning tuzilishi, so'zlar qanchalik tanishligi, so'zning to'g'ri yoki boshqa ma'noda qollanishiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Xasanboyeva Shoiraxon. Yozma nutqni rivojlantirish. Proceedings of international Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, Usa-2022
2. Kadamova Mohinur Mamurbek qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki vayoqmanutqini rivojlantirish usullari. Международный научный журнал No7(100), часть2«Научный импульс» Февраль, 2023
3. Chet tillarda o'qishni o'rgatish metodikasi bo'yicha insholar - T.: / 2. Ed. I.M.Berman va V.A.Buchbinder. - Kiev: Oliy maktab, 2017 yil.
4. Hoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. - T.: Sharq nashriyot-matbaaaksiadorlik kompaniyasi Bosh tahririyat, 2013.
5. V.V.Shelenkova, I.B.Korelina. Bolalar o'smirlar va kattalardagi nutq va ovozning buzilishi .